

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

UTEULIYEVA MEXRIBAN IBRAIMOVNA

**FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA 5-6 SINF O‘QUVCHILARIDA
NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA SI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Uteuliyeva Mexriban Ibraimovna

Fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....3

Утеулиева Мехрибан Ибраимовна

Совершенствование методики развития речевой компетенции у учащихся 5-6 классов на основе междисциплинарного общения.....21

Uteuliyeva Mehriban Ibraimovna

Improving the methods of developing speech competence in students of grades 5-6 on the basis of interdisciplinary communication.....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works45

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

UTEULIYEVA MEXRIBAN IBRAIMOVNA

**FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA 5–6-SINF O‘QUVCHILARIDA
NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYA SI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped5172-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.tdpu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hamroyev G'ofir Hasanovich
pedagogika fanlari doktori (DSc)

Rasmiy opponenlar:

Shodiyeva Matluba Jo'raevna
pedagogika fanlari doktor (DSc), professor

Ysupov Konisbay Abilovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27 uy. Tel.: (+99871) 276-82-32, faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27 uy. Tel.: (+99871) 276-82-32.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil "___" _____ dagi _____-raqamli reestr bayonnomasi).

N.A.Muslimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
asosidagi Bir martalik ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
asosidagi Bir martalik ilmiy kengash kotibi,
p.f.d., dotsent

Z.N.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
asosidagi Bir martalik ilmiy seminar raisi,
p.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida, xususan, YUNESKOning 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida ta'lim sifatli ijodiy tafakkur va bilimni rag'batlantirishda eng muhim omil ekani ta'kidlangan¹. Tilni matn yarata olish darajasida o'qitish, matn tuzilishini o'rganishning o'quvchining matni tushunishiga ta'siri, fanlararo integratsiya, yozma nutqni rivojlantirishning inson tafakkuriga ta'siri, matn tuzilishini baholash, matn tuzishga yordam beradigan mashg'ulotlar, ijodiy yozishni rag'batlantiradigan faoliyat, o'quvchi tasavvurini rivojlantirish mazmunini takomillashtirish texnologiyalari amaliyotiga tatbiq etilmoqda. Yoshlariga berilayotgan ta'lim sifati, o'quvchilarining egallagan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish nutqiy kompetensiyani fanlar o'rtasidagi bog'liqlik, uzviylik va uzluksizlik tamoyillari asosida rivojlantirish. Integrativ jarayonlarda ta'lim mazmuni metodikasi, modellarini faollashtirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim muassasalarida lingvistik va nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda adabiy asarlardan foydalanish, asar tahlili orqali tilga oid bilimlarni chuqurroq egallash, ona tili darslarida turli uslubdagi matnlarning til xususiyatlarini matn yaratish darajasida o'rgatish, matni tushunish bilan bog'liq nutqiy kompetensiyalar ta'lim mazmuni va metodlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Fanlararo aloqadorlik asosida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini integrativ yandoshuvlar asosida takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarga etibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda o'quvchilarning o'qish savodxonligi, o'qib va tinglab tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish o'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ifoda etishini miyoriy asoslari yaratilmoqda. "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak"²ligi deb takidlangan. Natijada, fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 —2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2019 yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-iyuldagi "Ma'naviyat va davlat tilini

¹ Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

² O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni.

rivojlantirish masalalari departamenti to'g'risida"gi 419-son, 2020-yil 11-martdagi "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 139-son Qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ona tilini o'qitishda A.Fitrat, A.Usmon, M.Shams, A.G'ulomovlarning fikrlari; G.Ahrorova, Sh.Bektoshev, A.Bobomurodova, T.Ziyadova, T.T.G'aniyev, M.Saidov, A.Hamroyev, K.Mavlonovalar ona tili ta'limi jarayonida integrativ yondashuv asosida til o'qitish masalasi haqida; I.A.Allayorov, O.R.Rozikov, R.Ibragimov, B.R.Adizov, M.H.Mahmudov, A.E.Davronovlar ta'lim oluvchining o'quv topshiriqlari orqali o'quvchi faolligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

MDHdan B.P. Ardenpol, V.Z. Demyankova, I.A. Zimnyaya, I.Zhechkova, P.G.Kulagin, L.G.Larionova, L.M.Loseva, M.Lvovlar A.M.Novikov, T.V.Jerebilo, O.D.Kuznetsovalar lingvodidaktika nazariyasining rivojlanishi va nutqiy kompetensiyani matnlar asosida rivojlantirish mazmuni; talabalarning nutqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha Avanesov.R.I, Yu.M.Lotman, V.Y.Mirkin, N.D.Galskova, O.B.Sirotnina, N.M.Sokolnikova, N.A.Telenkovalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

O'quvchilarning matn turlari orqali nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish Andrew Dupont, Jonathan A. Held, Ghazi Shahadat Hossainlar; nutq va yozishning integratsiyasi Rowena V.Sosas; Zanele Mtshali, Nontokozo Mashiyalar; oratorlik o'qish usullari Odima Leo Ekapten; til bo'yicha nutqiy malakalarni shakllantirish Kathy Sylva, M.Napp, D.Xoll, Pam Sammons, Edward Melhuish, Brenda Taggartlar nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning ko'p darajali modellarini takomillashtirish va matn tuzish ko'nikmasini rivojlantirish tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotning Dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Ona tili ta'limini rivojlantirish" mavzusi doirasida bajarilgan (2021-2023yy).

Tadqiqotning maqsadi fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini turli fanlar mazmunini integratsiyalab o'qitishga doir pragmatik o'quv jarayonlari produktivligini takomillashtirish;

fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish modelini takomillashtirish;

fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini samaradorligini aniqlash;

Tadqiqotning obyekti sifatida fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Samarqand viloyati Urgut tumanidagi 72-maktab, Samarqand shahridagi 46-maktab, Toshkent shahridagi 240–224-maktablar, Nukus shahridagi 34-maktab, Shimboy tumanidagi 36- va 2-maktablarda va A'mudaryo tumanidagi 61- va 74-maktablarning 345 nafar o'quvchilari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, suhbat, statistik tahlil, intervyu, anketa-so'rovnomalari, pedagogik tajriba-sinov kabi bir qator usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari mantiqiy fikrlashning produktiv ko'lamini kengaytirishga yo'naltirilgan mushohada va amalda qo'llash ko'nikmalarini tahliliy prognozlash hamda ta'limni tashkil etishning individual xususiyatlarini amaliy integratsiyalash asosida aniqlashtirilgan;

5–6-sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasi matn mazmunini ochib beruvchi pragmatik o'quv jarayonlar produktivligini ta'minlash hamda nutqni rivojlantiruvchi ijodiy topshiriqlarning tuzilishi va mazmunini ta'limiy vazifalarning talablariga mos ravishda intensiv integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

fanlararo aloqadorlik asosida 5–6-sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish modeli matn osti ma'nolarni kalit so'zlar doirasida aniqlash ko'nikmalarini jadal rivojlantirishga qaratilgan ma'lumotlarni mavzuga bog'lay olish, ma'lumotlar almashish, qayta ishlash, xulosa, qaror chiqarish komponentlarining o'zaro integrativ xossalarini hisobga olish asosida takomillashtirilgan;

5–6-sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish samaradorligi o'qish, tinglab tushunish, yozish va gapirish, matn va matndan tashqaridagi ma'lumotlarni oddiydan murakkabga qarab tahrirlash hamda grammatik bilimlarini mustahkamlash, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish va intellektual qobiliyatni rivojlantirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

5–6-sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning mazmuni aniqlangan, shakl, metod va vositalari, fanlararo aloqadorlik asosida matn mazmunini

ochib beruvchi, muallif maqsadini anglashga xizmat qiluvchi, fikrlashga undaydigan pragmatik o‘quv topshiriqlari ishlab chiqilgan;

5-6 sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani va ijodiy fikrlashini rivojlantirish bo‘yicha “O‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma nashr qilingan; (978-9910-06-049-6 TGFU)

nutqiy kompetensiyani rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari “Ona tili” darslarini “Tasviriy san’at” va “Adabiyot” darslari bilan integratsion yondashuv asosida o‘qitishga doir ijodiy topshiriq va ishlanmalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan tadqiqot usullari va ilmiy-nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalarga aloqadorligi, keltirilgan tahlil hamda tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati pedagogika va o‘zbek tili o‘qitish metodikasini takomillashtirishda, o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani integratsion yondashuv asosida rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlarining ta’limda tutgan o‘rnini belgilashda hamda dissertatsiya da aks etgan nazariy qarashlar mavzu doirasidagi yangi tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajarishi mumkin.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati ishda ilgari surilgan g‘oyalar, nazariy qarash va amaliy tavsiyalar ona tili va adabiyot darsliklari, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda hamda ma’ruza matnlari tayyorlashda, oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishlarida “Ona tili o‘qitish metodikasi”, “Ona tili”, “Til ta’limida o‘quv topshiriqlaridan foydalanish” fanidan amaliy mashg‘ulotlarda dars samaradorligini oshiruvchi material bo‘lib xizmat qilishi, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida ham o‘qish savodxonligi kompetensiyasini hosil qilishda muhim metodik tavsiya bo‘lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish natijalari asosida:

fanlararo aloqadorlik asosida 5–6-sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari mantiqiy fikrlashning produktiv ko‘lamini kengaytirishga yo‘naltirilgan mushohada va amalda qo‘llash ko‘nikmalarini tahliliy prognozlash hamda ta’limni tashkil etishning individual xususiyatlarini amaliy integratsiyalash asosida aniqlashtirishga doir tavsiyalar F3-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfavit va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 4-iyuldagi 11-05-3614/04-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda fanlararo aloqadorlikni ta’minlash bo‘yicha metodik ta’minot takomillashgan;

5–6-sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasi matn mazmunini ochib beruvchi pragmatik o‘quv jarayonlar produktivligini ta’minlash hamda nutqni rivojlantiruvchi ijodiy topshiriqlarning tuzilishi va mazmunini ta’limiy

vazifalarning talablariga mos ravishda intensiv integratsiyalash asosida takomillashtirishga oid takliflar F3-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfavit va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 4-iyuldagi 11-05-3614/04-son ma’lumotnomasi). Natijada, ona tili ta’limining fanlararo integratsiya qismi o’quv topshiriqlari orqali takomillashtirilgan;

fanlararo aloqadorlik asosida 5–6-sinf o’quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish modeli matn osti ma’nolarni kalit so’zlar doirasida aniqlash ko’nikmalarini jadal rivojlantirishga qaratilgan ma’lumotlarni mavzuga bog‘lay olish, ma’lumotlar almashish, qayta ishlash, xulosa, qaror chiqarish komponentlarining o‘zaro integrativ xossalarini hisobga olish asosida takomillashtirishga oid takliflar F3-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfavit va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 4-iyuldagi 11-05-3614/04-son ma’lumotnomasi).. Natijada, ona tili va adabiyot o‘qitishda o‘quv topshiriqlari ishlab chiqish metodikasi takomillashtirilgan;

5-6-sinf o’quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish samaradorligi o‘qish, tinglab tushunish, yozish va gapirish, matn va matndan tashqaridagi ma’lumotlarni oddiydan murakkabga qarab tahrirlash hamda grammatik bilimlarini mustahkamlash, ijodiy tafakkurini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish va intellektual qobiliyatni rivojlantirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid takliflar PZ-202004165 raqamli “Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida og‘zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish” mavzusidagi loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 4-iyuldagi 11-05-3614/04-son ma’lumotnomasi). Natijada ona tili o‘qitishda pragmatik o‘quv topshiriqlari ishlab chiqish imkoni oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika konferensiyasida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik Dissertatsiyani asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan, 2ta respublika, 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya ning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya ning hajmi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYA NING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning aprotatsiyasi natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Fanlararo aloqadorlik asosida o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ona tili darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida o‘rganish zarurlari, nutqiy kompetensiyani rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari tavsifi, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning mavjud holati tahlili bayon qilingan. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga integrativ yondashish, maktabda fanlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchi egallashi lozim bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardan, o‘qitishning amaliy maqsadlaridan biridir. Fanlararo aloqadorlik asosida ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo‘llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta‘minlaydigan bilimlarni tushunamiz”.

Fanlararo aloqadorlik asosida ona tili darslarida anglash, fahmlash, nutq so‘zlash, insho yozishni o‘rgatibgina qolmay, balki topshiriqlar orqali o‘quv adabiyotlariga yo‘naltirilsa, ona tilining jonli va tabiiy til ekanligiga ham ishonch hosil qilinadi. Fanlararo aloqadorlik asosida o‘quv topshiriqlari orqali ona tilini o‘qitishga innovasion yondashuvlarni joriy etishga doir ishlarni faollashtirish; ona tili o‘qitish uchun ilmiy, metodik, psixologik va pedagogik yordam tizimini rivojlantirish ishlarni takomillashtirish; etnolingivistikaning so‘nggi yutuqlarini ta‘lim jarayoniga jalb qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.


Fanlararo aloqadorlik asosida lingvistik bilimlarni berishga, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar jamlangan davrda yaratilgan darsliklarda berilgan topshiriqlar ta‘lim oluvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlashga, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga, duyoqarashini kengaytirishga va intellektual qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. A.B.Usovaning fikricha, fanlararo aloqadorlikning o‘quvchi, tarbiyachi va umumiy rivojlanishiga ta‘siri o‘qitishdagi usullar va uslublarning ichki mantiqiy tuzilmasini takomillashtirish va qayta qurish yo‘li bilan amalga oshiriladi. D.Alimjonovning ta‘kidlashicha, fanlararo bog‘lanish – hodisasi ko‘p o‘lchamli bo‘lib, ta‘lim jarayonining mazmuni, usullari, tashkil etish shakllari bilan chegaralanmaydi. Fanlararo aloqalar o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatiga va o‘qituvchilarning o‘qitish jarayonini qamrab oladi. U o‘quvchi shaxsiyatiga qaratilgan bo‘lib, uning dialektik tafakkurini, ilmiy

dunëqarashini, ilmiy bilish ko‘nikmasini shakllantiradi, o‘quvchining ta‘limiy ehtiëjlarini qondirishga va qobiliyatni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fanlararo aloqalarni amalga oshirish – bu tasodifiy misol va faktlardan foydalanish emas, turli o‘quv fanlardan o‘zlashtirilgan bilimlarni birlashtirishni ta‘minlovchi o‘qituvchining maqsadli yo‘naltirilgan faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotimiz vazifalaridan kelib chiqib, o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish maqsadida “kompetensiya”, “kompetentlilik” tushunchalarining metodologik asoslarini turli yo‘nalishlarda o‘rgandik, shuningdek, mazkur tushunchalar yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qildik va umumlashtirdik.

“Kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalari tilshunoslikda ilk bor XX asr o‘rtalarida N.Xomskiy tomonidan muomalaga kiritilgan bo‘lib, tilni ishlatish jarayonida “faoliyatga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui sifatida”, ta‘lim sohasida esa, “kompetensiyaviy yondashuv” sifatida talqin etiladi, ta‘limda natijaviylikni belgilaydigan omillardan biri sifatida qayd etilgan.(1-rasimga qarang)



1.rasm. Nutqiy kompetensiyani tashkil etuvchi nutqiy ko‘nikma va malakalar tuzilmasi.

Fanlararo aloqadorlik mustaqil didaktik tamoyildir. Pedagogik tadqiqotlarda fanlararo aloqadorlikning mazmuni, uning komponentlari orasidagi tuzilmaviy nisbatlar, o‘qitish jarayonida ularning funksiyalari yoritiladi.

H.Muhiddinova ta‘lim sohasida kompetensiya so‘zini layoqat, kompetentlikni esa, layoqatlilik deb, ta‘limga kompetensiyaviy yondashuvni egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim yo‘nalishi, deb tushunish maqsadga muvofiq ekanligini ta‘kidlaydi. Til ta‘limida kompetensiyaviy yondashuv ta‘lim oluvchilarning o‘rganayotgan tili materiallaridan va olingan axborotlardan o‘z

hayotiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash va nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo'llay olish ko'nikma-malakalarini tarkib toptirish, ya'ni tilni maqsadli ravishda amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarni hosil qiladi.

Hozir davr talabiga ko'ra barcha fanlardan integratsiyalashgan, o'quvchini fikrlashga undovchi zamonaviy darsliklarning yaratilganligi, shuningdek, rang-baranglik, dizayn va yangicha formatda tayyorlanayotganligi o'quvchilarning diqqatini tortadi hamda ularda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa shuki, o'quv topshiriqlarini tuzishda fanlararo aloqadorlikning ta'minlanishi Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish imkonini beradi, shuningdek, insonning butun ongli hayoti davomida nutqning shakllanishini ta'minlaydi.

Dissertasiyaning ikkincha bobi **“Fanlararo aloqadorlik asosida 5-6-sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan. Unda fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish modeli haqida bayon qilingan.

O'qitish jarayonida integratsiyani qo'llash nazariyasi taraqqiyoti ilmiy pedagogik tushunchalar rivoji, asosiy va muhim ahamiyatga ega. Integratsiya differensiya bilan uzviy bog'liqdir. Bu uzviylik o'quvchilarda olayotgan bilimlarini anglashga bo'lgan intilishlar tizimini barpo qilishlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Mazkur mulohazalardan kelib chiqib, tadqiqotimiz doirasida fanlararo aloqadorlik asosida 5-6-sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish modeli o'quvchilarning matn va matndan tashqaridagi ma'lumotlarni mavzuga bog'lay olish, matn osti ma'nolarni kalit so'zlar asosida aniqlash ko'nikmalarini jadal rivojlantirishga qaratilgan ma'lumotlar almashish, qayta ishlash, xulosa, qaror chiqarish komponentlarining o'zaro integrativ xossalarini barqaror va izchil hisobga olish asosida takomillashtirilgan (2-rasmga qarang). Mazkur model 5-6-sinf o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Uning komponentlaridan strategik maqsadning to'g'ri qo'yilishi ish samaradorligining oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur model 5-6-sinf o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Uning komponentlaridan strategik maqsadning to'g'ri qo'yilishi ish samaradorligining oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur modelda 5-6 sinf o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalari rivojlantiradi. Uning komponentlaridan strategik maqsadning to'g'ri qo'yilishi ish samaradorligining oshirilishini ta'minlaydi.

Tadqiqotimiz doirasida amalga oshirilgan kuzatuv, empirik o'rganish va tahlillarimiz mazkur model fanlararo aloqadorlik asosida nutqiy kompetensiyani hosil qiluvchi, fikrlashga undaydigan pragmatik o'quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqish; turli uslubdagi matnlardan, o'quv materiallaridan foydalangan holda fanlararo


aloqadorlik asosida nutqiy kompetensiyani oshiruvchi topshiriqlar ishlab chiqish; turli nutq vaziyatiga mos matnlardan foydalanilganda fikrlashga yo'naltiruvchi savol va topshiriqlar o'quvchilarda matn va matndan tashqaridagi ma'lumotlarni mavzuga bog'lay olish, matn osti ma'nolarni kalit so'zlar asosida aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishda nutqiy kompetensiyani rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari ishlab chiqish va amaliyotda foydalanish; ona tili mashg'ulotlarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish bo'yicha metod, usul va texnologiyalarni taklif qilish kabi o'zaro bog'liq funksiyalarni bosqichma-bosqich integratsiyalash orqali amalga oshirilganda samarali bo'ladi degan xulosaga kelish imkonini berdi. (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari

Rivojlantirish bosqichlari	O'qituvchining faoliyati	O'quvchilarning faoliyati
Adabiyot faniga doir matnlarni o'qib tushunish	Badiiy matn taqdim qilish	Matnni o'qib tushunishni o'rganadi, o'quv topshiriqlarini bajaradi.
	Nutqiy ko'nikma hosil qiluvchi topshiriq berish	Farqlash bo'yicha topshiriqlar bajaradi
	Nutqiy ko'nikma hosil qiluvchi mashq berish	Ishning maqsadini belgilash
Adabiyot faniga doir audio va video matnlarni tinglab tushunish	Audio va video matn taqdim qilish	Audio va video matnlarni tinglaydi
	Tinglab tushunishga tayyorlash	Tinglab tushunish bo'yicha topshiriqlarni bajaradi
Tasviriy san'at faniga doir o'quv materiallarni ko'rib tushunish	Fanlararo aloqadorlikni ta'minlovchi o'quv materiallarini taqdim qilish	Taqdim qilingan o'quv materiallarni ko'rib tushunish bilan shug'ullanish
	Farq va aloqadorlikni anglash bo'yicha topshiriqlar berish	Ko'rib tushunish bo'yicha topshiriqlarni bajaradi
	Tasviriy san'at yoki badiiy asarlarni ko'rib tushunish bo'yicha ko'nikmasini baholash	Ko'rib tushunishni baholash bo'yicha taqdim qilingan nazorat topshiriqlarni bajaradi.
O'qib, ko'rib va tinglab tushunganlarini og'zaki bayon qilib berish	Taqdim etilgan matnga og'zaki munosabat bildirishga yo'naltirish	Nutq so'zlashga tayyorlanish
	Taqdim etilgan matnga yozma munosabat bildirishga yo'naltirish	Esse yozishga tayyorlanish
Nazorat-korreksiya	Nazoratni amalga oshirish	Ishni nazoratdan o'tkazish
	Kamchiliklarni ko'rsatib berish	Zaruriy tuzatishlar kiritish
Yakuniy	Loyihaviy faoliyat natijalarini taqdim qilish shaklini tanlashga yordam berish	Qo'lga kiritilgan natijalarni taqdim etish va himoya qilish

Dissertatsiya doirasida fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari mantiqiy fikrlash, anglash, mushohada qilish va amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlarini tahliliy prognozlash va loyihalash hamda ta'limni tashkil etishning individual xususiyatlarini amaliy integratsiyalash asosida takomillashtirishga erishildi.



2-rasm. Fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish modeli

Har bir dars oldindan tayyorlangan modullar va loyihalarga muvofiq o'tkaziladi. Buning uchun interaktiv metod turlari juda ko'p. Ularni dars mavzusining xususiyatlari va ko'zlangan maqsadga muvofiq tanlansa kifoya. Quyida tadqiqotimiz doirasida takomillashtirilgan fanlararo aloqadorlik asosida 5-6 sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasining tarkibiy qismi sifatida Ona tili darslarida foydalanishga doir interfaol metodlardan namunalar keltiramiz.

“Kundaliklar” metodi – ma'lum vaqt oralig'ida guruhning har bir a'zosi tomonidan tug'ilgan g'oyalari yozib boriladi va ular guruhda tahlil qilinib, bitta o'rtacha fikrga kelinadi.

Metodning maqsadi: o'quvchilarda yakka va jamoaviy ijodiy faoliyat ko'nikmalarini, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, turli shakldagi ijodiy faoliyatni egallash malakalarini integrativ hosil qilish.

O'tkazish tartibi: birinchi bosqich: guruhning har bir ishtirokchisi yakka holda ishlash uchun o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan tarqatma materiallardan birini tanlab oladi. Tarqatma materialda mavzu yuzasidan tayanch tushunchalarning nomi yozilgan. Tinglovchi yakka tartibda tayanch tushunchalar haqida bilganlarini jadval ko'rinishida shakllantiradilar.

ikkinchi bosqich: o'quvchilar yakka tartibda mavzuga doir tayanch tushunchalar ishtirokida kundalik faoliyatlarini og'zaki va yozma tarzda ifodalaydilar. Mazkur vazifa jamoaviy tarzda ham amalga oshirilishi mumkin.

uchinchi bosqich: o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashga doir savol-javob o'tkaziladi.

to'rtinchi bosqich: o'quvchilar faoliyatini baholash.

“6-6” metodi – guruhning olti a'zosi 6 minutda masala yechimi bo'yicha alohida-alohida o'z fikrlarni va o'z variantlarini yozishadi, keyin guruhda tahlil qilinib, eng muhimi tanlab olinadi.

“Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish” metodi. Ijodiy faoliyat-amaldagidan farq qiluvchi biror bir yangilik yaratishdir. Yangi bilim, uquv va malakalar ko'rinishida ushbu subekt uchun oldindan noma'lum bo'lgan yangilik yaratish borasidagi ijodiy faoliyat.

Mazmun: kichik guruhlarda “So'z turkumlari” mavzusini amaliy o'zlashtirish, kundalik faoliyatda qo'llashga doir o'quv topshirig'i asosida turli bosqichlarda matn yaratish va taqdimot qilish.

Maqsad: o'quvchilarning ijodiy fikrlashini faollashtirish, muammolarni hal qilish malakasini shakllantirish, masala yechimini ongli ravishda izlash qobiliyatini rivojlantirish.

Loyihalash – metodni ikki bosqich asosida qurish. Dastlab loyihani fikran yuzaga keltirish, uning rejasi va bajarish bosqichlarini tayyorlash.

Loyihani amalga oshirish: axborot bilan ishlash: matn yaratish uchun turli axborotlarni izlash, saralash, zamonaviy axborot, qiziqarli voqea, mazmunli fikr-mulohazalarni umumlashtirish; qayta ishlash: muammoni bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'tkazish. Bunda muhokama natijasida eng qiziqarli va sermazmun deb topilgan matn muhokama qilinadi va tanlanadi; ijodiy faoliyatni rivojlantirish: mavjud bo'lgan bir necha matnlar asosida yangi ma'lumotlarni izlash. Bunda matnni bir ko'rinishdan boshqasiga o'tkazish, hikoya qilish, zamonaviy va yangi so'zlardan

foydalanish rejasi tuziladi va vazifalar taqsimlab olinadi; ijodiy masalalarni guruhda yechish: kichik guruhda tuzilgan matnni tahlil qilish, kundalik faoliyatda ro‘y bergan voqealar bilan boyitish, bo‘lajak mutaxassis sifatida kelajakdagi ish faoliyati bilan bog‘lash, tanlagan kasbi bo‘yicha atamalar bilan boyitish, oila a‘zolari, do‘stlari va ularga bo‘lgan munosabatini aks ettirish va hokazolar; ijodiy faoliyatni guruhiy baholash: o‘quvchilar tomonidan guruh ishini mustaqil baholash va qiyosiy tahlili, o‘quvchilarning o‘zini o‘zi baholashi.

Natija. Metodni qo‘llash natijasida o‘quvchilarda rivojlanadigan kompetensiyaning mazmuni: o‘quvchilarda o‘rganganlarini kundalik faoliyatda qo‘llash, ona tili faniga oid kompetensiyalarni shakllantirishda ijodiy muhitni vujudga keltirish, ona tili fanini o‘qitish va jarayonni boshqarishga ijodiy yondashuvning shakllanishi.

“Bosqichma-bosqich” metodi.

Maqsad: bu metodda o‘quv jarayoni aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etish asosida amalga oshiriladi.

